TARIXIY HAQIQATDAN BADIIY HAQIQATGA: XAYRIDDIN SULTON ASARLARIDA O'TMISHNING POETIK TALQINI

Sotiboldiyeva Maloxatxon Kamoliddinovna.
Qo'qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti
E-mail: malohatxon229@gmail.com
https//orcid.org/0009-0009-2445-4385

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xayriddin Sulton asarlarida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish jarayoni va o'tmish voqelig'ining poetik talqini tadqiq etiladi. Yozuvchining «Saodat sohili», «Boburiynoma» va «Yaldo kechasi» asarlari misolida tarixiy faktlarning badiiy qayta ishlanishi, tarixiy shaxslar obrazining yaratilishi, retrospektiv tafakkur, tarixiy xotira hamda muallif pozitsiyasining badiiy ifodadagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy voqelik va zamonaviy badiiy idrok uyg'unligining yozuvchi ijodidagi o'ziga xos jihatlari ochib beriladi*

Kalit so'zlar: *Xayriddin Sulton, tarixiy haqiqat, badiiy haqiqat, tarixiy nasr, poetik talqin, retrospektiv tafakkur, tarixiy xotira, tarixiy obraz, muallif pozitsiyasi.*

ОТ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ К ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРАВДЕ: ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОШЛОГО В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХАЙРИДДИНА СУЛТАНА

Аннотация. *В данной статье исследуется процесс трансформации исторической правды в художественную реальность и поэтическая интерпретация прошлого в произведениях Хайриддина Султана. На материале произведений «Берег счастья» («Saodat sohili»), «Бобурнома» и «Ночь Ялдо» анализируются художественная переработка исторических фактов, создание образов исторических личностей, ретроспективное мышление, историческая память и роль авторской позиции в художественном изображении. Особое внимание уделяется своеобразию взаимосвязи исторической действительности и современного художественного восприятия в творчестве писателя.*

Ключевые слова: *Хайриддин Султан, историческая правда, художественная правда, историческая проза, поэтическая интерпретация, ретроспективное мышление, историческая память, исторический образ, авторская позиция.*

FROM HISTORICAL TRUTH TO ARTISTIC TRUTH: THE POETIC INTERPRETATION OF THE PAST IN KHAIRIDDIN SULTAN'S WORKS

Abstract. *This article examines the transformation of historical truth into artistic truth and the poetic interpretation of the past in the works of Khayriddin Sultan. Based on Saodat Sohili, Boburiynoma, and Yaldo Kechasi, the study analyzes the artistic reinterpretation of historical facts, the portrayal of historical figures, retrospective thinking, historical memory, and the role of the author's perspective in literary representation. Particular attention is paid to the distinctive relationship between historical reality and contemporary artistic perception in the writer's works.*

Keywords: *Khayriddin Sultan, historical truth, artistic truth, historical prose, poetic interpretation, retrospective thinking, historical memory, historical image, authorial perspective.*

KIRISH

Tarixiy xotira xalqning ma'naviy o'zligini anglashida, milliy qadriyatlarning avlodlar o'rtasida davomiyligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. O'tmish voqeliklarini o'rganish va ularni badiiy tafakkur orqali qayta idrok etish adabiyotning nafaqat estetik, balki ma'rifiy va ma'naviy vazifalarini ham namoyon qiladi. Ayniqsa, tarixiy nasrda yozuvchi oldida murakkab ijodiy masala turadi: tarixiy manbalarda qayd etilgan voqelikni badiiy obrazlar, xarakterlar va poetik tafsilotlar vositasida qayta yaratish, shu bilan birga, tarixiy davrning o'ziga xosligini saqlab qolish. Shu jihatdan tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat munosabati adabiyotshunoslikning doimiy dolzarb muammolaridan biridir.

Tarixiy haqiqat badiiy asarda tayyor va o'zgarmas ma'lumotlar yig'indisi sifatida namoyon bo'lmaydi. U ijodkorning tarixiy manbalarga munosabati, davrni anglash darajasi, estetik qarashlari va badiiy tafakkuri orqali muayyan poetik shaklga ega bo'ladi. Tarixiy voqelikning badiiy haqiqatga aylanishi jarayonida fakt, muallif talqini va ijodiy to'qima o'zaro munosabatga kirishadi. Biroq ularning uyg'unligi tarixiy mazmunni buzish yoki o'tmishni zamonaviy qarashlarga sun'iy moslashtirishni anglatmaydi. Aksincha, tarixiy materialning badiiy qayta ishlanishi davr mohiyatini, inson xarakterining murakkabligini va voqealarning ma'naviy-ijtimoiy mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qilishi lozim. O'zbek adabiy merosini o'rganish, tarixiy-madaniy xotirani asrab-avaylash va milliy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur asosida anglash masalalari mamlakatimizning ma'naviy taraqqiyot yo'nalishlari bilan hamohangdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan yangilangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib etish

kabi vazifalar belgilangan. Mazkur ustuvor yo'nalishlar tarixiy adabiy merosni zamonaviy ilmiy mezonlar asosida tadqiq etish, o'tmish voqeliklarining badiiy talqinini chuqur o'rganish hamda milliy xotiraning adabiyotdagi ifoda shakllarini aniqlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, Xayriddin Sulton asarlarida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish jarayonini o'rganish adabiy merosni ilmiy anglash va uning poetik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar va o'tmish voqeliklarini badiiy talqin etish an'anasi uzoq tarixga ega. Zamonaviy o'zbek nasrida esa bu an'ana tarixiy xotira, inson ruhiyati, milliy o'zlik va davrlararo ma'naviy muloqot masalalari bilan boyib bormoqda. Xayriddin Sulton ijodi ana shu jarayonning o'ziga xos namunalaridan biri sifatida e'tiborni tortadi. Adibning tarixiy mavzudagi asarlarida o'tmish faqat voqealar ketma-ketligi yoki tarixiy shaxslar faoliyatining bayoni tarzida emas, balki insoniy kechinmalar, ma'naviy izlanishlar va milliy xotira bilan bog'liq murakkab badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xayriddin Sultonning "Saodat sohili", "Boburiynoma" va "Yaldo kechasi" asarlari tarixiy materialning turli poetik shakllarda o'zlashtirilishini kuzatish imkonini beradi. "Saodat sohili"da Zahiriddin Muhammad Bobur siymosining badiiy-psixologik talqiniga e'tibor qaratilgan bo'lsa, "Boburiynoma"da tarixiy shaxs va davr obrazlarini epik idrok etish masalasi muhim o'rin tutadi. "Yaldo kechasi" romanida esa tarixiy voqelik, adabiy xotira, manbaviy asos va zamonaviy badiiy tafakkur o'rtasidagi munosabat yanada murakkab shaklda namoyon bo'ladi. Mazkur asarlarni o'zaro qiyoslash yozuvchi ijodida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish mexanizmlarini aniqlashga zamin yaratadi.

Xayriddin Sulton ijodiga bag'ishlangan mavjud tadqiqotlarda tarixiy shaxs obrazining talqini, badiiy psixologizm, tarixiylik, manbaviy asos, obrazlar tizimi va matnlararo munosabat kabi masalalar yoritilgan. Jumladan, Gulbahor Bobur obrazining badiiy asoslarini, uning ruhiy kechinmalari va psixologik qirralaridan tortib, Xayriddin Sulton hikoya va qissalarida hayot hodisalarining badiiy aks ettirilishi, tarixiy haqiqat va insonning ichki kechinmalari masalalarigacha e'tibor qaratilgan. "Yaldo kechasi" romaniga bag'ishlangan yangi izlanishlarda tarixiy haqiqat va badiiy talqin, manbaviy asoslar, tarixiy hamda to'qima obrazlar, intertekstual aloqalar alohida tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur ilmiy izlanishlar Xayriddin Sulton tarixiy nasrining muayyan poetik xususiyatlarini ochishga xizmat qilsa-da, ularni yagona konseptual doirada - tarixiy haqiqatdan badiiy haqiqatga o'tish jarayoni va o'tmishning poetik talqini nuqtayi nazaridan qiyosiy umumlashtirish ehtiyoji mavjud. Ayniqsa, tarixiy faktning badiiy

obrazga aylanishi, muallifning tarixiy materialni tanlash va qayta tashkil etish tamoyillari, retrospektiv tafakkur hamda zamonaviy badiiy idrokning o‘zaro aloqasi uch asar misolida yaxlit tahlilni talab etadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Xayriddin Sulton tarixiy nasri tarixiy ma’lumotlarning badiiy bayoni sifatida emas, balki o‘tmish bilan bugungi badiiy ong o‘rtasidagi murakkab muloqot shakli sifatida o‘rganiladi. Tarixiy haqiqatning poetik talqini orqali yozuvchi tarixiy xotirani qanday faollashtirishi, tarixiy shaxsning insoniy mohiyatini qay tarzda ochishi va o‘tmish voqeliklarini zamonaviy kitobxon uchun qanday ma’no qatlamlari bilan boyitishi masalalari tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi Xayriddin Sultonning “Saodat sohili”, “Boburiynoma” va “Yaldo kechasi” asarlarida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish xususiyatlarini aniqlash, o‘tmishning poetik talqinida tarixiy manba, muallif tafakkuri va ijodiy to‘qimaning o‘zaro munosabatini hamda retrospektiv idrok va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unligini ochib berish.

Ushbu maqsadga erishish uchun tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat tushunchalarining nazariy mazmunini aniqlashtirish; yozuvchi asarlarida tarixiy materialning tanlanishi va badiiy qayta ishlanish xususiyatlarini o‘rganish; tarixiy shaxslar obrazining poetik talqinini qiyosiy tahlil qilish; “Yaldo kechasi” romanida tarixiy manba va adabiy xotira munosabatini yoritish; uch asar doirasida o‘tmishning zamonaviy badiiy idrok orqali qayta ma’nolanish tamoyillarini umumlashtirish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Xayriddin Sultonning “Saodat sohili”, “Boburiynoma” va “Yaldo kechasi” asarlari tanlandi. Tadqiqot predmetini mazkur asarlarda tarixiy haqiqatning badiiy talqini, tarixiy obrazlar poetikasi, manba va ijodiy to‘qima munosabati hamda o‘tmishning retrospektiv idrok orqali qayta yaratilish xususiyatlari tashkil etadi.

Maqolada adabiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual va poetik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali Xayriddin Sulton tarixiy nasrining o‘ziga xos badiiy tamoyillari aniqlashtiriladi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat munosabatini Xayriddin Sulton ijodining uch muhim namunasi asosida o‘zaro bog‘liq poetik jarayon sifatida talqin etish bilan belgilanadi. Tadqiqotda o‘tmishning badiiy qayta yaratilishi tarixiy faktlarni takrorlash bilangina cheklanmay, ularni muallif tafakkuri, milliy xotira

va zamonaviy estetik idrok vositasida yangi mazmun bilan boyituvchi ijodiy hodisa sifatida yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xayriddin Sultonning "Saodat sohili", "Boburiynoma" va "Yaldo kechasi" asarlarini qiyosiy o'rganish natijasida yozuvchi tarixiy voqelikni badiiy tasvirga ko'chirishda bir xil usuldan foydalanmasligi, aksincha, har bir asarning mazmuni va janriy xususiyatiga mos ifoda yo'lini tanlashi kuzatiladi. "Saodat sohili"da tarixiy shaxsning ruhiy olami va insoniy kechinmalari, "Boburiynoma"da tarixiy shaxs hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarning badiiy va ma'rifiy talqini, "Yaldo kechasi"da esa muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi, ma'rifatparvarlik harakati va avlodlar taqdiri asosiy tasvir markaziga chiqadi. Demak, uch asarni birlashtiruvchi jihat faqat tarixiy mavzu emas, balki tarixiy materialni turli badiiy shakllarda qayta tashkil etish tamoyilidir. Bu tamoyil Xayriddin Sulton ijodida go'zal tarzda namoyon bo'ladi.

1.Tarixiy shaxs obrazining insoniylashtirilishi: "Saodat sohili" misolida

"Saodat sohili" asarini tahlil qilishda, avvalo, tarixiy shaxs obrazining faqat tarixiy faoliyat va siyosiy mavqe bilan cheklanmasligiga e'tibor qaratish lozim. Tarixiy manbalarda shaxs ko'pincha muayyan davr voqealari, siyosiy qarorlar va amalga oshirilgan ishlar bilan tavsiflanadi. Badiiy adabiyot esa ana shu ma'lumotlar ortida turgan insonning ichki kechinmalari, iztiroblari, orzu-intilishlari va ruhiy qarama-qarshiliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega. Xayriddin Sulton Bobur obrazini yaratishda aynan shu imkoniyatdan foydalanadi. Bobur tarixiy shaxs sifatida emas, balki o'z taqdiri, tanlovlari va ruhiy kechinmalari bilan yashayotgan inson sifatida namoyon bo'ladi: "…Abdulvohid Forig'iy yana allanimalarni gapirar, ammo Bobur endi eshitmas-teran xayolga cho'mgan edi. "Farkat" degan so'z unga sovuq yomg'ir savalab turgan izg'irinli kunlarni, kuzak osmonida favqulodda chaqnagan chaqmoqlarni eslatdi, umrining rutubatli, hazin onlarini yodiga soldi. O'sha voqealarga qancha bo'ldi ekan? Yo rabbiy, yigirma yeti yil! Qarchig'aydek bir yigit umri! O'shanda yonida hamrohu hamkor bo'lganlardan yana kimlar bor? U turli-tuman nomlarni eslashga urinarkan, ularning bari barmoq orasidan shuvillab to'kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir sirg'alib tushayotganini sezdi. No'yon ko'kaltosh, G'ulda Qosimbek, Xoldor, Mirshoh qavchin, Qo'chbek… Evoh, qayda ular? Qayerlarda? Barchasi endi "rahmatli"! Ba'zilari shiddatli janglarda boshidan ayrildi, ba'zilari g'anim nayrangiga duchor bo'ldi, ayrimlarining umri qisqa ekan, ayrimlari esa…xiyonat qildi… Oqibat, o'sha kunlardan bu kun faqat achchiq, mahzun xotiralar yodgor, xolos…"[1]

Bu jihat asarning badiiy ta'sir kuchini oshiradi: kitobxon tarixiy shaxsni uzoq o'tmishda qolgan hukmdor sifatida emas, balki murakkab hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirgan inson sifatida idrok etadi.

"Saodat sohili"dagi Bobur obrazini o'rganishga bag'ishlangan Gulbahor Tursunboyevaning 2022-yilgi maqolasida ham Bobur siymosini yoritishda badiiy psixologizm va yolg'izlik motiviga e'tibor qaratilgan[2]. Tadqiqotda qissaning Bobur obrazini ochishdagi o'rni "Boburnoma"dagi tarixiy asoslar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Bu kuzatishdan kelib chiqib, asardagi tarixiylikni faqat voqealarning tarixiy manbalarga mosligi bilan o'lchash yetarli emas, degan xulosaga kelish mumkin. Tarixiy obrazning badiiy qiymati uning ichki dunyosi qay darajada ishonarli ochilganida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, "Saodat sohili"da tarixiy haqiqat badiiy haqiqatga obrazning ruhiy talqini orqali yaqinlashadi. Yozuvchi tarixiy shaxsning hayot yo'lini qayta hikoya qilish bilangina cheklanmay, uning insoniy mohiyatini anglashga intiladi. Natijada Bobur obrazi tarixiy xotira doirasidan chiqib, bugungi kitobxon uchun ham ma'naviy va ruhiy jihatdan ahamiyatli qahramonga aylanadi.

2.*Tarixiy ma'lumotning badiiy tilga aylanishi:* Asarni o'qir ekansiz, Boburning azob-uqubatlarga to'la hayoti ko'z oldingizda gavdalanadi: "…Adovat va fitnalar, isyon va suiqasdlar tufayli u umr bo'yi qilichning damida turgandek beoron, behalovat kun kechirdi. Necha bor o'lim changalida qolib, har safar mehribon va rahmli Ollohninh qudrati ila yana hayotga qaytdi.

Tiriklik chog'ida charxning jabr-u jafosini hadsiz darajada tortgan bu zoti buzurg vafotidan keyin ham uzoq yillar taqdirning mashaqqatli sinovlariga duch kelaverdi…"[3] "Boburiynoma" misolida "Boburiynoma"da tarixiy haqiqatni badiiy ifodalashning boshqa bir ko'rinishi namoyon bo'ladi. Bu asarda tarixiy shaxs hayotiga oid ma'lumotlar, davrga xos tushunchalar, joy nomlari va tarixiy leksika muhim tasvir vositasiga aylanadi. Bunday birliklar matnga shunchaki qadimiylik ruhini berish uchun emas, balki o'quvchida muayyan davrning til manzarasi va ijtimoiy muhitini tasavvur qilish imkonini yaratish uchun xizmat qiladi.

3. *Hujjat, maktub va tarixiy tafsilotlarning badiiy vazifasi "Yaldo kechasi" misolida:* "Yaldo kechasi"[4] romanida tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat munosabati yanada murakkab shaklda namoyon bo'ladi. Asarda tarixiy davrni tasvirlash faqat muayyan voqealarni ketma-ket bayon qilish bilan cheklanmaydi. Jadid maktablari, matbuot, ijtimoiy muhit, ocharchilik va davrga xos hujjat-xat shakllari kabi tafsilotlar badiiy voqelikning tarkibiy qismlariga aylanadi.
Oydin Xo'jamurodovaning 2026-yilda "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali"da e'lon qilingan tadqiqotida[5] roman tarixiy voqelik bilan badiiy matn o'rtasidagi munosabat

nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Unda sarlavha va epigraf, "Yozg'uvchidan" izohi, hujjat-xat matnlari, jadid maktabi va matbuot bilan bog'liq tafsilotlar alohida ko'rib chiqiladi. Muallif alluziya va reminissensiyaning asardagi vazifalarini farqlab, tarixiy materialning badiiy matn bilan munosabatini ochishga intiladi.

Ushbu kuzatishdan kelib chiqib, "Yaldo kechasi" romanidagi hujjat va maktub shakllarini oddiy qo'shimcha ma'lumot sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Ular, bir tomondan, tasvirlanayotgan davrning ishonarliligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, voqealarga o'sha davr kishilarining qarashlari va munosabatlarini olib kiradi. Hujjat shaklidagi matn badiiy asar tarkibiga kiritilgach, u faqat axborot beruvchi vosita bo'lib qolmaydi: syujetni rivojlantirishi, qahramonlar o'rtasidagi munosabatni ochishi yoki muayyan voqeaga kitobxonning munosabatini shakllantirishi mumkin.

Roman haqidagi yana bir ilmiy maqolada taraqqiyot va urf-odatlar munosabati oddiy "eski – yangi" qarama-qarshiligi sifatida emas, balki taassubga aylangan urf-odat, ma'rifatparvar taraqqiyot va soxta taraqqiyot o'rtasidagi murakkab munosabat sifatida talqin qilingan. Bu yondashuv roman g'oyaviy qatlamini chuqurroq anglashga yordam beradi. Chunki asarda yangilikning o'zi emas, balki uning qanday maqsad va qadriyatlarga xizmat qilishi muhim mezon sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, "Yaldo kechasi"da tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi uch yo'nalishda ko'zga tashlanadi: tarixiy davrga xos tafsilotlarni tanlash, ularni syujet tarkibiga singdirish va turli matn shakllari orqali davr kishilarining dunyoqarashini ifodalash. Bu xususiyatlar romanning tarixiy mavzusini keng ijtimoiy-ma'naviy mazmun bilan boyitadi.

4. Uch asar poetikasidagi umumiylik va farqlar: Uch asarni qiyosiy tahlil qilish natijasida tarixiy materialning badiiy talqini bir necha yo'nalishda amalga oshishi kuzatiladi. "Saodat sohili"da tarixiy shaxsning ruhiy olami va insoniy kechinmalari, "Boburiynoma"da tarixiy til hamda ma'rifiy ma'lumotlarning badiiy ifodasi, "Yaldo kechasi"da esa hujjatli tafsilotlar, ijtimoiy muhit va davr mafkuraviy qarama-qarshiliklari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xayriddin Sulton tarixiylikni faqat voqealar mazmunida emas, balki badiiy shaklning o'zida ham namoyon etadi. Boshqacha aytganda, tarixiy material asarning mavzusigina bo'lib qolmay, uning tili, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi va bayon uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatdan yozuvchi ijodidagi muhim poetik xususiyatlardan biri — tarixiy materialning turli badiiy vositalar orqali qayta tashkil etilishidir. Tarixiy manbada mavjud bo'lgan ma'lumot badiiy asarda yangi vazifa kasb etishi mumkin: u qahramon ruhiyatini ochadi, muayyan davr muhitini jonlantiradi yoki asarning asosiy g'oyasini chuqurlashtiradi. Demak, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat

o'rtasidagi munosabat oddiy ko'chirish yoki qayta bayon qilishdan iborat emas. Bu jarayonda ijodkorning tanlovi, bahosi va badiiy maqsadi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

5. Tadqiqotning asosiy natijasi va ilmiy yangiligi

Tahlil natijasida Xayriddin Sultonning uch asarida tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishning o'zaro farqlanuvchi uch poetik mexanizmi mavjudligi aniqlandi:

Psixologik mexanizm — tarixiy shaxsning ichki dunyosi va insoniy kechinmalarini badiiy talqin qilish ("Saodat sohili").

Lingvopoetik mexanizm — tarixiy so'zlar, davrga xos leksik birliklar va ma'rifiy ma'lumotlarni badiiy ifoda vositasiga aylantirish ("Boburiynoma").

Hujjatli-kompozitsion mexanizm — hujjat, maktub, tarixiy tafsilot va adabiy ishoralarni syujet hamda g'oyaviy mazmun bilan uyg'unlashtirish ("Yaldo kechasi"). Ushbu uch mexanizmni birgalikda o'rganish yozuvchi tarixiy nasrining poetik xususiyatlarini yaxlit anglash imkonini beradi. Mazkur maqolaning asosiy ilmiy natijasi ham shundan iboratki, unda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat munosabati faqat mazmuniy o'xshashlik yoki tarixiy voqealarning haqqoniyligi asosida emas, balki tarixiy materialning badiiy matn ichida qanday vazifa bajarishi asosida izohlanadi. Bunda muhim bir farqni ham unutmaslik kerak: badiiy asardagi har bir tarixiy tafsilotni hujjatli dalil sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Tarixiy manba, muallifning badiiy talqini va ijodiy to'qima o'zaro farqlanishi lozim. Shu sababli Xayriddin Sulton asarlarini o'rganishda badiiy matnni tarixiy manbalar bilan qiyoslash, ayni paytda yozuvchining ijodiy erkinligini ham hisobga olish zarur. Xayriddin Sulton tarixiy nasrini tahlil etishda tarixiy fakt va badiiy haqiqat o'rtasidagi munosabatni aniqlash alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manba o'tmish voqeligiga oid daliliy ma'lumotlarni taqdim etsa, badiiy matn ushbu ma'lumotlarni yozuvchining estetik tafakkuri, obraz yaratish mahorati va ijodiy konsepsiyasi asosida qayta talqin qiladi. Shu jihatdan tarixiy shaxsning real hayotiga oid ma'lumotlar bilan uning asardagi ruhiy-psixologik qiyofasini aynan bir hodisa sifatida baholash mumkin emas. Badiiy talqin tarixiy faktni inkor etmaydi, balki uning insoniy, ma'naviy va estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Ijodiy to'qima esa tarixiy materialning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq bunday to'qima tarixiy haqiqatning o'rnini egallamasligi, aksincha, uning badiiy idrok etilishiga xizmat qilishi lozim. Demak, Xayriddin Sulton asarlarini o'rganishda tarixiy manbalar bilan matniy qiyos, obrazlar talqini va muallifning ijodiy erkinligini o'zaro uyg'un holda tahlil qilish zarur.

Umuman, uch asar tahlili Xayriddin Sulton tarixiy nasrining o'ziga xosligi tarixiy ma'lumotlarni qayta bayon qilish bilangina belgilanmasligini ko'rsatadi. Yozuvchi

tarixni inson ruhiyati, til, hujjat va badiiy kompozitsiya orqali qayta idrok etadi. Natijada o'tmish kitobxon uchun shunchaki ortda qolgan voqealar majmui emas, balki bugungi kun bilan ma'naviy va estetik muloqotga kirishadigan badiiy hodisaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xayriddin Sultonov. "Saodat Sohili". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2005.
2. Gulbahor Tursunboyeva 2022-yil scienceboxuz.uz.
3. Xayriddin Sultonov. "Boburiynoma". "Sharq" nashriyot-matbaa kontsernining Bosh tahririyati. Toshkent 1997.
4. Xayriddin Sulton. "Yaldo kechasi" T. Xaybar-25, 2026.
5. Oydin Xo'jamurodova 2026-yilda "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali"